

Composition of the healthcare system and modern econometric modeling

Sog'liqni saqlash tizimini tarkib topishi va zamonaviy ekonometrik modellashtirish

Состав системы здравоохранения и современное эконометрическое моделирование

Termiz davlat pedagogika institute

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Texnologiya va geografiya kafedrası

o'qituvchisi Ismoilova Dilfuza Ibodullayevana

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar dunyo higo-hida qanday talqin qilinayotganligi hamda O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat aholisining salomatligini yaxshilash, sog'liqni saqlash xizmatlarini yangilash va ularning sifatini oshirishdan iboratligi ham takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash tizimi islohoti, tibbiy ta'lim, sog'liqni saqlash infratuzilmasi, telemeditsina, profilaktika va sog'lomlashtirish, xalqaro hamkorlik

Abstract: This article provides information on how Uzbekistan's health care reforms are interpreted in the world and the rapid implementation of Uzbekistan's health care reforms in recent years. It was also noted that the main goal of these reforms is to improve the health of the country's population, update healthcare services and increase their quality.

Key words: healthcare system reform, medical education, healthcare infrastructure, telemedicine, prevention and health promotion, international cooperation

Аннотация: В данной статье представлена информация о том, как реформы здравоохранения Узбекистана интерпретируются в мире, а также о быстрой реализации реформ здравоохранения Узбекистана в последние годы. Также было отмечено, что основной целью данных реформ является улучшение здоровья населения страны, обновление медицинских услуг и повышение их качества.

Ключевые слова: реформа системы здравоохранения, медицинское образование, инфраструктура здравоохранения, телемедицина, профилактика и укрепление здоровья, международное сотрудничество.

Sog'liqni saqlash – aholi sog'lig'ini muhofaza qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimidir. Sog'liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog'lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko'rishni ta'minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni ko'zda tutadi. Uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko'rsatishdan iborat.

Sog'liqni saqlash Sharqda, xususan O'zbekistonda uzoq tarixga egadir. Ayniqsa o'rta asrda bu hududda tabobat ilmida yuqori bosqichlarga erishildi. Shu davrda yunon va boshqa tillardan, tibbiy asarlar arab tiliga tarjima etilib, ulardagi tavsiyalar amaliyotda qo'llanila boshlagan. Ayni vaqtda Sharq mutafakkirlari tabobat ilmidan olamshumul asarlar yaratganlar. Bu borada Abu

Rayhon Beruniyning „Tibbiyotda dorishunoslik“ („Kitob assaydana fittib“), Abu Ali ibn Sinoning „Tib qonunlari“ („Al Qonun fittib“) asarlari mashhur bo‘lib, jahon tabobatida uzoq davrlar mobaynida asosiy qo‘llanma bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sino davolashning yangi usullarini qo‘llab tabib (hakim) sifatida o‘z davrida juda mashhur bo‘ldi. Keyingi davrlarda ham tabiblik Turkistonda sog‘liqni saqlashning asosiy shakli bo‘lib keldi. Tabiblar madrasalarda ta‘lim olishgan yoki ustoz shogirdlik yo‘li bilan turli kasalliklarga, singanchiqqanlar, yarachaqalarga davo qilishni, xastaliklarning oldini olishni o‘rganishgan. Ularning ko‘plari nafaqat bemorlarni davolash, balki doridarmonlar tayyorlash bilan ham shug‘ullanganlar. Sohibqiron Amir Temur boshqa ma‘rifiy ishlar qatori aholi salomatligini muhofaza qilish ishiga ham alohida e‘tibor bergan. Boshqa mamlakatlar mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan.

Movarounnahr va Xurosonda 8—9-asr dayoq shifoxonalar uchun maxsus binolar qurila boshlagan. 15-asrda Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda ham shifoxonalar ko‘p bo‘lgan. Bunday jamoat shifoxonalari „Dor ushshifo“ („Davolash uyi“) nomi bilan yuritilib, ularda zamonasining bilimdon tabiblari bemorlarni davolashgan. „Dor ushshifo“dagi maxsus dorixonalarda dorishunoslar bemorlar uchun doridarmonlar tayyorlab berishgan. Aksariyat shifoxonalarda tabiblar bemorlarni davolashdan tashqari, tabobat ilmi bilan ham shug‘ullangan. Shifoxonalar ochilishiga Alisher Navoiy ham katta ahamiyat bergan va o‘z nazoratiga olgan.

Manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, keyingi yillarda ham Turkistonning ba‘zi viloyatlarida maxsus shifoxonalar bo‘lgan. Xususan, mashhur adib Vosifiy Zayniddin Mahmud (1485— 1551) „Nodir voqealar“ („Badoye’ ulvaqoye“) asarida Toshkentning shahar qo‘rg‘onidan tashqaridagi Kaykovus chorbog‘i haqida qiziqarli voqealarni bayon qilib, bu yerda xon va sultonlar uchun shifoxona bo‘lganligini yozgan. U davrlarda suv, havo, osmon, yer tozaligiga, ya‘ni zamonaviy tushuncha – ekologiyaga ahamiyat berilgan.

Turkistonni chor Rossiyasi bosib olganidan keyin o‘lkaga G‘arbga xos tibbiy muassasalar kirib keldi. Podsho hukumati Turkistondagi o‘z qo‘shinlarining manfaatini ko‘zlab 1868-yil Toshkentda harbiylar va amaldorlar uchun kasalxona (lazaret) ochdi. Keyinchalik boshqa shaharlarda ham katta kichik kasalxonalar, shifoxonalar ochila boshladi. 1872-yil Samarqandda, 1873-yil Xivada, 1891-yil Buxoroda unchalik katta bo‘lmagan kasalxonalar ochiddi. Pekin ular, asosan, davlat xizmatchilari va rus fuqarolariga xizmat ko‘rsatgan. Xususan, ayollarga tug‘ruqxona yoki kasalxonada tibbiy xizmat ko‘rsatish ishi uzoq vaqtgacha uyushmagan hodda qolib ketavergan. Faqat 1880-yil Toshkentda xayriya yo‘li bilan atigi 4 o‘rinli tug‘ruqxona tashkil etildi, ayollar va bolalarga mo‘ljallangan ambulatoriyalar ochildi. Mehnatni muhofaza qilish, Sog‘liqni saqlashga doir uyushgan muntazam tizim yo‘qpligi uchun sobiq Turkiston tuprog‘ida ko‘pgina yuqumli kasalliklar haddan tashqari ko‘p uchrar, ba‘zida epidemiyaga aylanib, qanchadan qancha kishilarning yostig‘ini quritar edi. Chunonchi, 1872-yildagi vabo epidemiyasi vaqtida Turkiston o‘lkasida 38 ming kishi nobud bo‘ldi. 1892-yildan 20-asr boshlarigacha 6 marta vabo epidemiyasi bo‘lib, har safar minglab kishilarning yostig‘ini quritdi. O‘lkada bezgak, leysh manioz, traxoma, rishta va boshqa kasalliklar ham ancha ko‘p uchrar edi. O‘sha davrda Buxorodek katta shahar aholisining beshdan bir qismidan ko‘prog‘i rishta kasalligiga giriftor bo‘lgan.

O‘tgan asrning 20y.larida bu borada bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Sog‘liqni saqqash xalq komissarligi tuzilib, o‘lkadagi mavjud kasalxona, ambulatoriyalar va boshqa tibbiy muassasalar davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Davolash va epidemiyalarga karshi kurashish uchun

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-12

sayyor otryadlar tuzildi, bakteriologik lab. ishga tushirildi, umumiy o'rinlar soni 7 mingga yaqin kasalxonalar ochildi. O'lkada chin chechak, vabo, rishta, bezgak, traxoma, leyshmanioz singari kasalliklar, asosan, tugatildi, sil, teri kasalliklari va boshqa kasalliklar sezilarli darajada kamaydi. O'lkada Sog'liqni saqlash tizimining moddiytexnik bazasi bosqichma bosqich kengaytirilib, mustahkamlandi. Toshkentdagi yirik kasalxonalarda tor mutaxassisliklar bo'yicha ixtisoslashgan ko'z, quloq, asab kasalliklari bo'limlari va boshqa tashkil etildi. Samarqandda yangi kasalxona, Qo'qonda bolalar kasalxonasi, Farg'onada bemorlarni fizioterapevtik usullar bilan davolaydigan maxsus shifoxona ochildi. Toshkentda shu sohadagi kichik xususiy kasalxona negizida 1919-yil 150 o'ringa mo'ljallangan fizioterapiya instituti barpo etildi.

1920-yil Toshkentda silga qarshi dastlabki dispanser ish boshladi. 1922-yil vrachlik sanitariya nazorati tashkiloti tuzildi. 1924-yil Toshkentda teri tanosil kasalliklari dispanseri, Buxoroda esa tropik tibbiyot instituti (hozirgi Samarqanddagi tibbiyot parazitologiyasi ilmiy tadqiqot instituta) ochildi. 1924-yilga kelib Turkistonda 6 tropik stansiya va uning joylardagi tarmoqdari ishlab turdi. 1924-yil respublikada 53 kasalxona, 151 ambulatoriya (ularning 79 tasi qishloq joylarida), 40 feldsherlik punkti va boshqa muassasalar bor edi. Shu yillarda tibbiyot ta'limini yo'lga qo'yish va mahalliy aholidan tib mutaxassislari tayyorlashga kirishildi. 1918-yilda Toshkentda dastlabki tibbiyot o'quv yurti – hozirgi Oxunboboyev nomidagi Respublika tibbiyot bilim yurti, oradan bir yil o'tib, oliy tibbiyot maktabi ochildi, sheriklik kurslari, qisqa muddat o'qitiladigan jarroxlik kurslari, muruvvat hamshiralari kurslari tashkil etildi. Oliy tibbiyot maktabi 1920-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti tarkibidagi tibbiyot ftiga aylantirildi. Bu Tibbiyot bilim yurtiga o'qishga yoshlarni tayyorlash uchun respublikaning ko'pgina shaharlarida ishchi filyallar ochilib, ularga yigit qizlari jalb etildi. O'rta Osiyo davlat universiteti oliy ma'lumotli tibbiy xodimlar tayyorlashdagina emas, balki joylarda yangi tibbiyot o'quv yurtlari ochishda ham muhim o'rin tutdi. 1925-yil viloyatlarning markazlarida tibbiyot markazlari ochildi. Universitetning tibbiyot fti 1931-yil mustaqil tibbiyot instituti (Toshkent tibbiyot instituti)ga aylantirildi. Samarqandda ham Samarqand tibbiyot instituti ochildi. 1932-yil Toshkent vrachlanr malakasini oshirish instituG'yaitashkil etildi. 1937-yil Toshkent farmatsevtika instituti ish boshladi. Ayni vaqtda ilmiy tadqiqot intrlari ham barpo etildi. 1937-yil Toshkentda sil, 1940-yil qon quyish intrlari bor edi. Sanoat korxonalar va qishloq joylariga ko'plab vrachlar yuborildi, shahar va qishloklarda yangi kasalxonalar, poliklinikalar, ambulatoriyalar ochildi, havosi sof va xushmanzarali joylarda iqlimiy kurortlar, shifoxonalar barpo etildi

1941—45 ylardagi urush davrida O'zbekiston Sog'liqni saqlash tizimi zimmasiga ancha mas'uliyatli vazifa tushdi. Jarohatlangan va shikastlangan jangchilar uchun gospitallar ochish, Sog'liqni saqlash tizimining moddiytexnik bazasini yanada mustaqamlash, o'lkaning sanitariya holatini barqaror saqlab turish kerak edi. Tez orada 130 dan ortiq harbiy gospitallar ochildi, Leningraddagi Harbiy tibbiyot akademiyasi, Moskva tibbiyot instituti va boshqa tibbiy ilmiy tadqiqot muassasalari O'zbekistonga ko'chirib keltirildi. Respublikada urush nogironlarini davolash uchun maxsus jarroxlik shifoxonalar ochildi.

Urushdan keyin respublikada bir qancha tibbiy ilmiy tadqiqot intrlari kaytadan ish boshladi va yangilari paydo bo'ldi (sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari, onkologiya va radiologiya, pediatriya ilmiy tadqiqot intrlari va boshqalar). 1955-yil Andijon tibbiyot instituti, 1972-yil O'rta Osiyo, hozirgi Toshkent tibbiyot pediatriya instituti, 1990-yil esa Buxoro tibbiyot instituti ochildi. Keyinchalik 1ToshTI ning Urganch filiali, 2ToshTIning Farg'ona filiali, Toshkent tibbiyot pediatriya institutining Nukus filiali tashkil etildi. Kardiologiya, gastroenterologiya,

endokrinologiya, nevrologiya, gematologiya, pulmonologiya, allergologiya, revmatologiya va boshqa sohalar bo'yicha xizmat ko'rsatadigan yirik klinikalar ishga tushirildi. O'zbekistonda shifoxonalar soni 1010 ta, ulardagi o'rinlar soni 140072 ta bo'ldi (2003). Sovetlar tuzumi davrida Sog'liqni saqlash muassasalari tarmogi ancha kengaygan bo'lsada, lekin ekologik nomutanosibliklar tufayli tashqi muhitning buzilishi, xususan, yerga turli xil kuchli kimyoviy moddalar solinishi, paxta yakkahokimligi va boshqa ijtimoiy noxushliklar natijasida aholi orasida turli ichki kasalliklarning ko'payishi kuzatildi

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng aholi salomatligini muhofaza qilish sohasini qaytadan isloh qilish boshlandi, Sog'liqni saqlash tizimining asosiy tamoili – profilaktik yo'nalishni tiklash; uning zamonaviy va samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tadbirlarini kuchaytirish; tibbiy ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish; ilmiy tadqiqot ishlarini davr va jamiyat hayotining talablaridan kelib chiqqan holda qayta tashkillashtirish; mamlakatda sifatli va yetarli miqdorda doridarmon, tibbiy ashyolar hamda shu sohaga taalluqli texnik vositalar ishlab chiqaradigan sanoat vujudga keltirish; Sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnik bazasini yanada yaxshilash; davolashprofilaktika muassasalarining bir qismini davlat tasarrufidan chiqarib, mulkchilik shaklini o'zgartirish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

O'zbekistonda Sog'liqni saqlash ishlarini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi boshqaradi. Krraqalpog'iston Respublikasida Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar, shaharlar hamda tumanlarda tegishli boshqarma yoki bo'limlar mavjud. Respublikada Seni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi, shuningdek, „Sog'lom avlod uchun“ xalqaro xayriya jamg'armasi, „Qizil yarim oy“ jamiyati, „Nuroniyy“ jamg'armasi va boshqa o'z hissasini qo'shib kelmoqda .

Bozor munosabatlariga o'tish Sog'liqni saqlash sohasiga ham yangi talablar qo'ydi. Xususan, ma'muriy boshqarish sarfharajatlarini kamaytirish; bemorlarni davolash jarayonida kunduzgi kamharajat va samarali usullardan foydalanish; shifoxonalar ish hajmining bir qismini poliklinikaga ko'chirish, kam samarali o'rinlar sonini qisqartirish; shartnoma asosida bajariladigan ishlar uchun haq olish va boshqa choralar ko'rilmogda.

Aholi sog'lig'ini muhofaza qilish ko'p jihatdan davlat epidemiologiya xizmati faoliyatiga bog'liq. O'zbekistonda sanitariyaepidemiologiya stansiyalari va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliyuslubiy va muvofiklashtiruvchi ishlarini olib boradigan „Salomatlik“ markazlari bu vazifani amalga oshirmogsa.

Respublikada „Salomatlik“ instituti, uning viloyatlar va shaharlardagi shoxobchalari radio va televideniye hamda matbuotdan foydalangan holda aholi o'rtasida sanitariyagigiyenaga oid bilimlarni keng targ'ib qilib boradi.

Bolalarga ixtisoslashgan tibbiy yordam beruvchi muassasalar tarmog'i barpo etildi. Respublikada ishlab chiqilgan „Sog'lom avlod uchun“ dasturi avvalo muntazam o'tkazib turiladigan tibbiy tekshirishlar asosida salomatligi zaif va kasalmand maktab o'quvchilari va o'smirlarni aniklab, ularni va umuman yosh avlodni sog'lomlashtirish choratadbirlarini amalga oshirib borishni ko'zda tutadi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni ta'minlashdagi alohida xizmatlari uchun 1993-yil 7 mayda O'zbekiston Respublikasi ning I va II darajali „Sog'lom avlod uchun“ ordeni ta'sis etildi.

O'zbekistonda tibbiy ta'limning uzluksiz bo'lishiga va mutaxassislarning o'z malakalarini oshirib borishiga katta ahamiyat beriladi. Toshkentda vrachlar malakasini oshirish instituti ishlab turibdi. Uning 43 kafedrasini va har xil ixtisoslikka mo'ljallangan kurslarida har yili 8—10 ming vrach o'z malakasini oshiradi.

Mamlakatda Sog'liqni saqlash sohasidagi islohot bosqichmabosqich olib borildi. Birinchi bosqichda (1991—94 yillar) butun e'tibor onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish, demografik ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish, yuqumli kasalliklarni kamaytirishga karatildi.

Xulosa va takliflar: Umuman olganda, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini yanada oshirish ushbu sohaga ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish hamda aholimizning bu ishlarni chuqur anglagan holda qo'llab-quvvatlashiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, har birimiz ushbu sohani yanada takomillashtirish yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarimizni bildirish, hech bo'lmaganda o'z sog'lig'imizga e'tiborli bo'lib, sog'lom turmush tarziga rioya etish orqali tibbiyot xodimlariga ko'maklashishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi - rasmiy veb-sayti va uning nashrlari, islohotlar to'g'risida yangiliklar va statistik ma'lumotlar.
2. "World Health Organization (WHO) Reports" - Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining O'zbekistondagi sog'liqni saqlash tizimi haqidagi hisobotlari va tavsiyalari.
3. "Health Systems in Transition: Uzbekistan" - Tadbirkorlik va Sog'liqni Saqlash Markazi tomonidan nashr etilgan hisobot.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari - Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarni belgilovchi hujjatlar. www.Lex.uz